

-DON, -ISTON AFFIKSLARI YORDAMIDA YASALGAN OKKAZIONAL BIRLIKLAR

Moxinur Qurbonova Abdusoli qizi

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8020264>

Annotatsiya: Maqolada okkazional birliklar haqida ma'lumot, affiksatsiya usulida yasalgan okkazional birliklar, ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: okkazionalizm hodisasi, okkazional birlik, leksik okkazionalizm, affiksatsiya.

Tilshunoslikda shunday birliklar borki, ular hamisha yangiligi, o'ziga xosligi, g'ayritabiiyligi bilan ajralib turadi, belgilangan qonuniyatlarga bo'ysunmaydi. Bunday birliklar tilshunoslikda okkazional birliklar nomi bilan yuritiladi. "Okkazionalizm [lot. Occasionalis – tasodifiy] tilsh. Umumiste'molga muvofiq, to'g'ri kelmaydigan, individual tarzdagi ma'noga ega bo'lgan til birligi"[1]. A.Hojiyev "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da okkazionalizmlarni individual-uslubiy neologizm atamasi bilan nomlaydi: "Mahsuldor bo'lmish model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizm"[2].

Okkazional so'zlar og'zaki nutqda hamda badiiy, publitsistik, ilmiy, umuman, barcha sohada qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa, bolalar nutqida okkazional so'zlarni ko'p uchratamiz. Chunki ular atrof-muhitni obrazlar orqali ko'radilar, ba'zan so'zlarning talaffuziga qiynaladilar. Natijada ularning nutqida okkazional birliklar yaratiladi. Masalan, bebek-kompyuter, to'r beshga kirmoq – to'rt yarim yosh, guldaz – yulduz. Ba'zan o'zga til vakillari tomonidan ma'lum tilni tushunmaslik natijasida o'zlari to'la anglamagan holatda okkazional birliklarni ixtirochilariga aylanadilar: ichqoq – ichkilikka berilgan odam, vositalisiz to'ldiruvchi – vositasiz to'ldiruvchi, diqqatlik bilan – diqqat bilan. Og'zaki nutqda yaratilgan bunday okkazional birliklar kam holatlarda xotirada saqlanib qoladi. Shu bilan birga, reklama matnlarida e'tiborni jalb qilish maqsadida okkazonallar yaratadilar: lag'monjon, lag'moniston kabi. Shu bilan birga grafik – belgilar yordamida ham okkazional birliklar yaratiladi: PRiMUS – xususiy tibbiyot maskaniga nisbatan qo'llangan. "Grafik okkazionalizmlar birinchi navbatda pragmatik vazifaga ega – ayniqsa, reklama matnlarida diqqatni jalb qilish vazifasini bajaradi: BREEZгн. (televideniyadan, BREEZгн – saqich turi, 2010-yil, iyun)[3].

So'z yasalishi tilshunoslikning eng faol va ma'lum darajada o'zgaruvchan sathlaridan biridir. Bu sath bo'yicha jahon va o'zbek tilshunosligida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Affiksatsiya bu so'z yasalishining eng faol usullaridan biri O'zbek tilida so'zlar asosan affiksatsiya usulda yasaladi. Okkazional birliklar nutqiy hodisa bo'lganligi sababli uning yasalishi ham muallif tomonidan erkin tanlanadi va turli turkumga oid birliklar yaratiladi.

-iston affiksi ma'lum bir millat ma'nosini ifodalovchi so'zga qo'shilib, ana shu millat yashaydigan joyni, shu millatga qarashli hududni ifodalaydigan ot yasaydi. Joy ma'nosini ifodalovchi so'zni hosil qiladi: O'zbek+iston, Tojik+iston kabi[4]. Shu bilan birga, asos anglashgan narsa ko'p bo'lgan joy ma'nosidagi ot ham yasaydi: gul+iston kabi[5].

Bu jahliston eliga va'zlar kor etmagay, faryod,

Bu sangin dillari tepkular ozor etmagay, faryod,

Bu osiyo sangin ustida turpo ketmagay, faryod,

Bu ko'histon dilini kafhi xobi bitmagay, faryod,

Yotar doim farog'atda na nanggu or g'or etmaz (Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar 1-jild – 87-bet.)

Jahl [a.nodonlik, aqlsizlik. Jaholat] Nojo'ya xatti-harakatdan, gapdan, voqea-hodisadan ranjish, achchiqlanish tuyg'usi; g'azab. Jahl – dushman, aql – do'st. Maqol. Muharrir jahl bilan kalendarini shart-shart varaqladi-da, bitta betini yulib oldi. O'.Usmonov Sirli sohil. Ahmadning jahli tez, sal narsaga tutaqib ketadi. F.Musajonov Himmat. 2.ayn jaholat 1, Maktab anjumani borg'il, unda fikr ochib gohi. Ilm-fan tig'i bilan jahl bag'rini qon qil. Hamza (O'TIL, II, 78).

“Jahl. Nodonlik, nodonlikdan mag'rurlanish “[6].

Jaholat [a. nodonlik, aqlsizlik, ilmsizlik] 1. Ilmsizlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlik] Ayollar o'tmishda hammadan ko'p zulm ko'rgan. Hammadan ko'p jaholat qolgan. P.Tursun O'qituvchi.2.ayn. jahl. Qutidor uyalish va o'kinish orasida: - Jaholat kelsa, aql qochadur, qizim! – deb qo'ydi. Abdulla Qodiriy O'tkan kunlar. Sodiqjon boyvachchaning jaholati qanaqaligini [Yusuf Qiziq] yaxshi bilardi. K.Yashin, Hamza (O'TIL, II, 78).

“Jaholat bexabarlik, g'aflat, ilmsizlik” [6]

Yuqoridagi misolda -iston affiksi joy ma'nosidagi so'zga emas, balki jaholat ma'nosini ifodalovchi so'zga qo'shilgan. Ya'ni johillik ko'p bo'lgan joydir. Ijodkor jahliston so'zini – “jaholat ostida qolgan el, ilmsizlik, ma'rifatsizlik botg'og'iga botgan yurt” ma'nosida qo'llagan. Natijada okkazional birlik hosil bo'lgan.

-don affiksi ayrim so'zlarga qo'shilib, asosdan anglashilgan narsa solinadigan predmetni bildiruvchi ot yasaydi: siyoh+don, kul+don, suv+don, qalam+don[4]. Shuningdek, fors tilida don fe'li hozirgi zamonni ifodalaydi, “bil” ma'nosini anglatadi: suhandon, bilimdon kabi.

Haqoratdonimiz so'zi “haqoratlashni biladigan kishi” ma'nosiga to'g'ri keladi. Bu so'z asli qo'shma so'z. Shoir haqoratdonimiz so'zini “haqoratli so'zlar”, ya'ni “hazil o'rniga haqoratli so'zlarimiz bor” ma'nosida qo'llagan:

Adab bobida tanho o'zgalar lof urmasun , oxir,

Hazil o'rnig'a badnom-u haqoratdonimiz bordur.

Muhandis bizda yo'q, deb noraso so'z demagil, notiq.

Sharorat tog'ida mino topib olg'onimiz bordur (Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar 1-jild – 88-bet).

Haqorat [a.pastlik, tubanlik, razillik; pastkashlik; tahqirlash] Kishining or-nomusi shaxsiyatini pastga uradigan, tahqirlovchi ma'no-mazmunli so'z, gap (O'TIL, 5, 521).

Demak, haqorat so'zi mavhum ot hisoblansa, Avloniy aynan ana shu mavhum otga -don affiksini qo'shadi va o'ziga xos okkazional so'z hosil qiladi.

Shunday okkazional birliklar borki, so'z yasaliish qonuniyatlari asosida yasalgan bo'lishiga qaramay, semantik yoki grammatik qonuniyat buziladi.

References:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: 2005. –Б.103.
2. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати, –Тошкент: 1985. Б. 74.
3. Нефляшева И. А. ИНОЯЗЫЧНЫЕ ГРАФИЧЕСКИЕ ЭЛЕМЕНТЫ В СТРУКТУРЕ ОККАЗИОНАЛЬНОГО СЛОВА, // Вестник Ставропольского государственного университета, – М., 76/2011. С. 96-97.
4. Абдурахманов Шо. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –

Тошкент. "Ўқитувчи", –1980. Б.182.

5. Сараяев Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: 2009. – B. 49.
6. Фарҳанги забони тоҷики, – Москва, " Советская энциклопедия" –1969, Б.777.
7. Ахмедова Нилуфар Мамасидиковна. (2023). ОСОБЕННОСТИ НЕАЛГОРИТМИЧЕСКИХ МЕТОДОВ И ИХ РОЛЬ В РЕШЕНИИ ЗАДАЧ. E Conference Zone, 52–58. Retrieved from <http://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/2015>.
8. Shoqosim o'g'li, A. U., Rahimovna, T. O. R., Mamasiddiqovna, A. N., Mamasoliyevich, T. R., & Roxataliyevna, A. N. (2022). Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories. Journal of Positive School Psychology, 6(11), 1354-1365.